

# **FORSCHA SO‘ZLAR TARKIBIDA QO‘LLANILGAN -AK AFFIKSI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

Abdulhamid Abduvaiyev Abdumo‘minovich  
katta o‘qituvchi  
Jizzax davlat pedagogika instituti

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘ atida keltirilgan so‘zlar tarkibidagi kichiklikni, pastlikni, pakanalikni, kamlikni ifodalovchi -ak affiksining qo‘llanilish holatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan.

## **Kalit so‘zlar**

Leksema, o‘zak, so‘z yasovchi affiks, affiksatsiya, ot, sifat, fe‘l, negiz, so‘z yasalishi.

## **НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ ОБ АФФИКСЕ -АК В ПЕРСИДСКИХ СЛОВАХ**

Абдулхамид Абдувалиев Абдумоминович  
преподаватель  
Факультет узбекского языка и литературы  
Джизакский государственный педагогический институт

## **Аннотация**

В этой статье представлена подробная информация об использовании аффикса -ак, означающего малость, неполноценность, дефицитность лексики узбекского языка.

## Ключевые слова

Лексема, основа, словообразовательный аффикс, аффиксирование, существительное, прилагательное, глагол, основа, словообразование.

## SOME COMMENTS ABOUT THE AFFIX -AK IN PERSIAN WORDS

Abdulhamid Abduvaliev Abdumominovich  
teacher

Faculty of Uzbek language and literature  
Jizzakh State Pedagogical Institute

### Annotation

This article provides detailed information on the use of the affix -ak , meaning smallness, inferiority, deficiency of the vocabulary of the Uzbek language.

### Keywords

Lexeme, stem, derivational affix, affixing, noun, adjective, verb, stem, word formation.

**Kirish.** O‘zbek tilining besh tomlik izohli lug‘atida jami 234 ta forscha -ak qo‘shimchasi yordamida yasalgan forscha-tojikcha so‘zlar mavjud. Bu qo‘shimcha o‘zbekcha so‘zlarda asosan ot so‘z turkimiga tegishli so‘zlarga qo‘shiladi. Forscha so‘zlarda -ak qo‘shimchasi forscha fe’llarga ham qo‘shilib kelgan. Bunday so‘zlar, ya’ni forscha fe’llarga qo‘shilgan so‘zlar 50 dan ortiq so‘zni tashkil etadi. Shuningdek, lug‘ atda *bodbezak* (294), *bodparrak* (295), *bodrezak*, *bodbarak* (297) kabi so‘zlar ham uchraydi. Shundan *bodbezak* (bod+bez+ak) shaklida hosil qilingan bo‘lib, so‘zi *bezidan* “esmoq” va –ak qo‘shimchasi orqali yasalgan bo‘lib “kuchsiz shamol esishi” ma’nosini ifodalaydi. *bodparrak* esa “shamol yordamda aylanadigan kichik parrak yoki ventilyator” ma’nosida ishlatiladi. *Bodrezak* so‘zida esa bod –“shamol”, rez esa

“to‘kmoq” ma’nosidagi rextan fe’li yordamida hosil qilingan bo‘lib, “shamol yordamida to‘kiladigan” ma’nolarida qo‘llangan.

**Asosiy qism.** O‘zbek tilining izohli lug‘ atida tarkibida -ak affiksi qatnashgan quyidagi so‘zlar berilgan:

- a) otdan kichraytirish va o‘xshatish ma’nosini ifodalovchi ot yasaydi: *bargak, ichak, yo‘lak*;
- b) otlardan o‘xshatish, holat, tur bildiruvchi sifatlar yasaydi.: *murg‘ ak (bola), qirmizak (olma), g‘ alvirak (yong‘ oq)*;
- c) yakka yoki takrorlangan taqlidiy so‘zlardan ot yasaydi: *varrak, guldurak, qarsak, bizbizak, davdarak* kabilar.

Yuqorida so‘zlarning qaysi ma’noda kelishi haqida to‘g‘ ri ma’lumot berilgan. O‘zbekcha so‘zlar bilan kelganda yuqoridagi fikrlarga qo‘shilishimiz mumkin. Ammo o‘zbek tilining izohli lug‘ atida o‘zbekcha so‘zlardan tashqari forscha –**ak** qo‘shimchasi bilan kelgan so‘zlar mavjud. Chunki fors tilida –**ak** qo‘shimchasi faqat otlarga qo‘shilibgina qolmay, balki fe’l, sifat va hatto ayrim sifatdoshlarga qo‘shilib; kichraytirish, “o‘xshatish, kichiklik, kamlik, yetishmaslik, pakanalik” kabi ma’nolarni anglatuvchi ot va sifatlarga doir so‘zlar yasaydi.

Lug‘ atda **puxtan-** “pishmoq”, “pishirmoq” fe’lining hozirga zamon shakliga -**ak** qo‘shimchasi qo‘shilib “oldin pishar, hammadan oldin pishuvchi, bir yoki ikki meva pishishi” haqida ma’lumot beruvchi so‘z sifatida ishlatilgan. Masalan: *jabazak* ayni *javpazak* yoki *jo‘vpazak* so‘zlaridagi *jav-paz-ak* “arpa + pishmoq + kamlik, ozlik ma’nosidagi qo‘shimcha” sxemasida hosil qilingan bo‘lib, “arpa pishig‘ ida pishadigan birinchi meva” ma’nosini ifodalaydi. Chunki qolgan mevalar bug‘ doy pishganda pishadi. Arpa (jav) pishganda pishadigan yagona meva o‘rikdir.

Izohli lug‘ atda forscha *pechidan-* “o‘ramoq, chirmamoq” ma’nosidagi so‘zlarining hozirgi zamon shakli *pech* so‘zi “o‘rash, chirmash” ma’nolarida bir necha so‘z tarkibida ishtirok etgan. Lekin fe’l turkimiga tegishli so‘z bilan kelgan –**ak** affiksi ot

turkimiga tegishli soʻz bilan “meva, oʻt, oʻsimliklar” maʼnosini ifodalab keladi. Lugʻ atda *zarpechak* (138), *pechak* (249), *pechakgul* (249), hatto tarkibida oʻzbekcha soʻzlar ham ishtirok etgan *sutpechak* (597) kabi soʻzlar mavjud. Bularning barchasi “chirmashib, oʻraydigan oʻsimlik”ka doir soʻzlar boʻlib, ingichka va boshqa oʻsimliklarga oʻrashib oʻsganligi uchun ham “pechak- oʻraydigancha”, chirmashgan maʼnolarida qoʻllaniladi. *Zarpechak* (138) buralib, chirmashib oʻsadigan sargʻ ish oʻsimlik, *pechak* (249) “oʻsimlik tanasiga chirmashib oʻsadigan oʻsimlik” maʼnosida, *pechak* (249) “oʻram, koptok, gʻ altak, pechak, handalak” maʼnosida, *pechakgul* (249) “karnaygullar oilasiga mansub oʻsimlik maʼnosida, *sutpechak* (598) “poyasi chirmashib oʻsadigan barglari yuraksimon oʻt” maʼnosida, *qoʻypechak* (402) pechakgullarga mansub, sugʻ oriladigan yerlarda, adirlarda oʻsadigan, qoʻy-mol yeydigan bir yillik yovvoyi chirmovuq oʻt” maʼnosida qoʻllangan. Yuqoridagi soʻzlardan maʼlum boʻladiki, *pechak* soʻzi forscha, oʻzbekcha soʻzlar bilan kelgan ot turkimuga oid oʻzbekcha *chirmovuq* maʼnosiga toʻgʻ ri keladi.

Lugʻ atda feʼl turkimiga oid *parridan* –“uchmoq” soʻzining hozirgi zamon shakli “*parr*” soʻzi sermahsul qoʻllangan. “*Par*” soʻzi *bod* va *shamol* soʻzlariga qoʻshilib kelgan. Aslida ham *bod* soʻzi oʻzbek tilidagi *yel* va *shamolga* toʻgʻ ri keladi, lekin *bodparrak* bu “shamolda aylanadigan parrak”, *shamolparrakni* esa lugʻ atlarda *ventilator* deb berilgan. Aslida *bodparrak* va *shamolparrak* soʻzlari sinonim hisoblanadi.

*Paridan*- soʻziga tegishli boʻlgan *shabparrak* (shapalak), *koʻrshabparrak* (koʻrshapalak) soʻzlari ishtirok etgan. Shabparrak - “shaparak” kechasi uchadigan qushcha, koʻrshabparrak -“koʻrshapalak” esa “koʻzi koʻr, kechasi uchadigan qushcha” degan maʼnoni anglatadi. Garchand soʻzda uchmoq feʼli ishtirok etgan boʻlsa-da, ot turkimiga oid qushcha maʼnosida qatnashgan.

Lugʻ atda *chin*-, yʼani “ter-” felining hozirgi zamon shakli *chin* soʻziga –**ak** affiksi qoʻshilib, *chinak* hosil boʻlgan. Shuningdek, *moʻychinak* (667-b) *xazonchinak* (376-b) kabi soʻzlar *chindan* soʻzidan olingan. *Chin* soʻzi omonim soʻz boʻlib, *Chin* – “Xitoy”,

*chin-* “haqiqat” (o‘zbekcha), *chin-* termoq ma’nosida har ikki tilda ham qo‘llanadi. Ozroq narsani tersa chinak ma’nosida keladi. Lug‘ atda ikki qo‘shma so‘z, o‘zbekcha *xazonak qilmoq* (376-b.) hamda forscha *xazonchinak* (575-b) so‘zlari bir ma’noda qo‘llangan. *Xazonchinak*ni lug‘ atda “xazon teruvchi”, xazonak qilmoqni “kuzda yig‘ishtirib olingan hosil qoldig‘ ini qidirib topib, terib olish” ma’nosida keltirilgan. Aslida *xazonakchinak* so‘zi ham mana shu ma’noda ishlatiladi. *Mo‘ychinak* - esa “kichkinagina soch, qosh tuklarini terish uchun ishlatiladigan qisqich” hisoblanadi. Yuqoridagi fe‘l turkumiga tegishli forscha so‘zlarning barchasi o‘zbek tilida ot vazifasida keladi. Bundan boshqa kichiklik ma’nosini bildiruvchi quyidagi fe‘l turkumiga doir forscha so‘zlar ham o‘zbek tilida qo‘llaniladi. Masalan: *koftan-* “kovlamoq, qazimoq” so‘zining hozirgi zamon shakli *kovdan* – *kovak* (419-bet), *xo‘rdan* -“yemoq, ichmoq” fe‘lining hozirgi zamon negizi *xo‘r-* o‘zagiga boshqa so‘z qo‘shish yordamida *mazaxo‘rak*, *moyxo‘rak*, *loyxo‘rak*, *no‘xatxo‘rak*, *oshxo‘rak* kabi so‘zlar hosil qilingan.

*Gazidan* – “tishlamoq, chaqmoq” fe‘lining hozirgi zamon shakliga kichiklik ma’nosidagi –ak qo‘shimchasi qo‘shilganda *gazak*, ya’ni “sharob ichuvchilarning gazagi (tishlagichcha), ruschada – zakuska”, yoki “inson organizmidagi yaraning gazak olishi (shamollashi)” ma’nolarida, *xafagazak* – “yallig‘ lanish, gazak olish (yaraning gazak otishi)” tarzida keladi.

Bundan tashqari -ak qo‘shimchasini olgan yuzdan ortiq ot turkumiga oid so‘zlar mavjud. Bulardan ham –**ak** qo‘shimchasi quyidagicha berilgan. Forscha *bulbulak*, *varrak*, *vahmak* (460-b), *katak*, *kashak*, *kurtak*, *laxtak*, *maymunchak*, *mardumak* kabi juda ko‘p so‘zlar qo‘llangan. Bu qo‘shimchalarning barchasi o‘zbekcha –**cha**, ya’ni kichiklik, pakanalik ma’nolarini anglatuvchi qo‘shimcha bilan sinonim qo‘shimcha sifatida kelganligini ayrim ot turkumiga doir –*ak* qo‘shimchasini olgan so‘z bir, ikki yoki undan ham ko‘proq ma’nolarni bildirishi mumkin. Masalan: *xar+ak=xarak* so‘zi “eshakcha” degan ma’noni anglatishi bilan birga “taglik poya ya’ni dutor, tanbur kabi

cholgʻ u asboblarning ipi yoki simlarini koʻtarib turish uchun ishlatiladigan tirgak, eshakcha” maʼnosida qoʻllanadi.

Biz yana sinonim maʼnoda qoʻllaniladigan *tuxmak* soʻzini maʼnosiga toʻxtalsak, bu soʻz “nasl, avlod, urugʻ, urugʻ don yoki eng kichik tuxumcha” maʼnosida qoʻllanilishi mumkin.

Yana *-ak* qoʻshimchasi orqali bogʻlangan soʻzlarning aksariyati meva, sabzavot va asosan oʻsimliklarning nomini bildiruvchi soʻzlardir. Masalan: *maymunchak* soʻziga oʻzbek tili izohli lugʻ atida quyidagicha taʼrif berilgan. *Xoʻjagʻat* (maymunjon) “tanasi tikanak bilan qoplangan, yerda choʻzilib oʻsadigan nordon, qoramtir-qizil, gʻ uch mevali koʻp yillik oʻsimlik”dir.

Ot turkumiga tegishli forscha soʻzlarni bir necha guruhga boʻlib oʻrganish mumkin:

- a) Insonlarning kichiklik sifatiga egaligi maʼnosini ifodalovchi soʻzlar. Bunday soʻzlarda insonlarning kichiklik, pakanalik, pastlik, maydalik belgisini bildiruvchi **-ak** qoʻshimchasi bilan yasalgan quyidagi soʻzlar: *javak* (67-bet) – “isirgʻ aning quyi qismi”; *jamalak* soʻzi esa 1) qiz bolaning hali uncha oʻsmagan, yoyilib ketmaslik uchun paxta-pilik qoʻshib oʻrilgan sochlari; 2) Soxta kokil maʼnosida. Shuningdek, *jevak* (79-b.) “xotin-qizlarning boʻyniga taqadigan ziynat buyumi” maʼnosida; *kanizak* – “yosh choʻri, yosh oqsoch”. Bunday soʻzlar anchagina uchraydi.
- b) Daraxtlarlarning hajm belgisi bildiruvchi soʻzlar: *kundak* (430-b), *kurtak* (436-b), *kamxastak* (312-b), *kaltak* (299-b), *tirmizak* (46-b) va boshqalar.

**Xulosa.** Lugʻ atda sifat turkumiga doir **-ak** affiksli forscha soʻzlar ishlatilgan. Bunday soʻzlar ham turli maʼnolarda qoʻllanganligini koʻramiz. Oʻzbekcha soʻzlarda otdan kichraytirish va oʻxshatish maʼnosini ifodalovchi, otlardan oʻxshatish, holat bildiruvchi sifatlar yasaydi: *murgʻak*, *qirmizak* kabi. Lekin forscha soʻzlarda sifatga doir soʻzlardan ham sifat turkumiga oid maʼnolarni ifodalovchi sifatlar yasaydi. Masalan: *shoʻrak* - *shoʻrtak*, *tursh* - *turshak*, *puch* - *puchak*, *shirin* - *shirinak*, *xom* - *xomak*, *past* - *pastak* va

boshqalar. Chunonchi, *turshak* haqida o‘zbek tilining izohli lug‘ atida “danagi bilan quritilgan o‘rik” ma’nosida keltirilgan, lekin fors tilida ma’no jihatdan bir oz farq qiladi, chunki danagi bilan quritilgan o‘rikni “qoq” yoki “o‘rik qoq” deb aytiladi. *Tursh* so‘zi nordon, achqimtir bo‘lganligi uchun hali pishishiga biroz vaqtdan oldin yerga tushgan, chala pishgan o‘rikka *turshak* deb ataladi. *Xomak* so‘zi esa hali pishmagan *qovunga* nisbatan ishlatiladi, o‘zbek tilida *sapcha* ham deyiladi. Shunday qilib hozirgi o‘zbek lug‘ atlarida va so‘zlashuv nutqida o‘zbekcha -ak qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘z bilan bir qatorda forscha so‘zlar bilan kelgan -ak qo‘shimchalari ham qo‘llangan. Biz bu ishda -ak yordamida yasalgan so‘zlarning ma’nolariga e’ribor berganimizda, har ikki tilda qo‘llangan so‘zlar ma’no jihatdan ko‘p farq qilmaganini ko‘ramiz.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006; 2-жилд, 2007; 3-жилд, 2007; 4-жилд, 2008; 5-жилд, 2008.
3. Фарҳанги забони тоҷики. I. – М. Советская энциклопедия.1969. – С.540.
4. Фарҳанги забони тоҷики. II. . – М., Советская энциклопедия.1969. – С. 774.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.1-jild. – T. Mumtoz so‘z. 2010.